

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI AGROMATNLARDA ZAMON DEYKSISINING IFODALANISHIGA DOIR

*M. Bozorova*¹

Annotatsiya:

Mazkur maqola deyxsis hodisasining ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid ilmiy matnlarida ifoda etilishi haqida bo'lib, bunda dastlab deyxsis hodisasi xususan zamon deyxsis to'g'risidagi tilshunos olimlarning nazariy ma'lumotlari jamlangan. Nazariy ma'lumotlar bilan birgalikda aynan temporal deyxsisning agromatnlarda uchrashi va ularning ikki tildagi qiyosiy tadqiqi misollar yordamida keltirilgan.

Kalit so'zlar: deyxsis, pragmatika, zamon deyxsis, agromatnlr, ilmiy matn.

doi: <https://doi.org/10.2024/50t1cv40>

Til jamiyatda insonlar nutqi vositasida namoyon bo'ladi. Til vositalarining nutq jarayonlarida voqelanishida deyxsis hodisasi bir muncha ahamiyatli hisoblanadi. Xusudan, berilayotgan firkgga so'zlovchining shxasiy munosabatini bayon etuvchi deyxsis hodisasi yunon tilidan olingan bo'lib, "ko'rsatish, ishora qilish" degan ma'noni bildiradi. Ko'rsatish ishora vositasini bajaruvchi birliklarni deyktik vositalar deb nomlashgan bo'lsa, ayrim faylasuflar ularga indeksikallar deya nom berishgan. Deyksis bir nechta turlarga bo'linadi. Uning asosiy guruhlari shaxs, zamon va makon deyxsis bo'lib, bugungi maqolamizda biz aynan zamon deyxsisining ingliz va o'zbek tillaridagi agromatnlarda ifodalanishiga oid holatlarni ko'rib chiqamiz.

Voqelikda kechayotgan hodisalar bayonida va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davri, paytini ko'rsatish muhimdir. (Ufimseva 1974: 184). Dastavval zamon deyxsis haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u haqida bir qancha tilshunoslar o'z fikrlarini berib o'tishgan. Filmor o'zining ma'ruzasida zamoni belgilash uchun har bir tilde taqvimli so'zlar mavjud deb bayon qiladi. Bunga misol sifatida oy, kun sanalarni keltiradi. So'zlovchi esa belgilab berilayotgan vaqtni taqvimli o'lchova yoki o'zining origosiga yoki boshqacha aytganda egosentirk asosga ko'ra aniqlashi mumkin deya aytib o'tgan. (Filmore 1975: 124)

Levinson esa vaqtni bayon etishni kodlash asosida belgilashni taklif etgan, ya'ni so'zlovchi aytayotgan vaqt va tinglovchi qabul qilgan vaqt. Olim bu ikkala vaqt oralig'ida farqlar ham bo'lishi mumkinligini, ba'zida ikkala tomon butunlay boshqa vaqtni nazarda tutgan bo'lishi ehtimolliligini keltirib o'tgan. (Levinson, 1983.p.62).

Bunday ko'rsatish vazifasini zamon (vaqt) deyxsis vositalari bajaradi. Zamon ko'rsatkichlari vositasida qaysi vaqtga ishora qilinayotganligi anglashiladi.

G.Yul aytganidek, "deyktik iboralar, chegaralangan miqdorda bo'lishlariga qaramasdan, keng ko'lamda qo'llanadilar va ular har bir alohida qo'llanilishiga nisbatan ko'proq kommunikativ mazmun ifodalaydilar" (Yule 1996: 16).

Zamon deyxsis ham bundan mustasno emas, bu turdagi deyktik belgilarning pragmatik mundariyasi kontekst va so'zlovchi (yozuvchining) kommunikativ maqsadi, muloqot intensiyasi bilan bog'liqdir. (Safarov 2008:174)

Ingliz tilidagi agromatnlarda zamon deyxsis bildiruvchi birliklarga payt ravishlari kiradi:

¹ Bozorova Munisa, Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

We will now determine what happens when the F₂ of a cross-pollinated species such as maize is allowed to open pollinate. (Essentials of plant breeding 81)

Yuqoridagi berilgan misolda muallif izohlanayotgan holatning kechayotganligini o'quvchilar uchun tushnarli bo'lishi uchun "now" ravishidan foydalanmoqda. Biroq bu so'z o'quvchi uchun ayni vaqt degan ma'noni anglatmaydi. Bu haqida Sh.Safarov quyidagicha fikrni keltirib o'tadi. "Vaqt birliklarining zamon deyxisi sifatida berilishi aynnan matn doirasidagini ma'lum manolarni bradi, ularni bevosita muloqot jarayoniga ko'chirilsa yoki vaqt o'tsa bu berilgan zamon ko'ratkichlari ham o'zgaradi". (Safarov Sh. 2008:179)

O'zbek tilidagi agromatnlarda ham payt ravishlari faol qo'llanilsada, bu ko'proq umumiy ma'nosa olinib, ayni bir lahzaga e'tibor qaratilmasligi bilan ingliz tilidan farqlanadi:

Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatida keng tarqalgan taqirli tuproqlarda mo'l-ko'l paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari etishtirilmogda. . (Z.Z.Abdushukurova, S.Q.Zakirova, S.Sidiqov, S.Abdullaev O'zbekiston tuproqlarining agrokimyoviy tavsifi O'quv qo'llanma 8o)

Taqvimli belgilar vaqt oralig'ini aniq o'lchoviga ishora qilmaydilar. Binobarin, «Dushanba kuni ko'rishamiz» gapining mazmunini to'liq anglash, qaysi dushanba nazarda tutilayotganini bilish uchun ushbu va'da qachon (qaysi kuni) berilayotganligini bilish zarur (bu va'da yakshanba va seshanba kuni aytilishiga nisbatan vaqt o'lchovi bir kundan yetti kungacha farq qiladi). Shuning uchun ham taqvimli temporal birliklar aniq deytik mazmun olishlarida aniqlovchilar yordamiga muhtojlik sezadilar: o'tgan yakshanba, kelgusi juma, joriy yilning dekabri, shu kecha kabilar.(Safarov Sh 2008: 178)

Ingliz tilidagi agromatnlarda ham taqvimli belgilar vositasida zamon deyxisini ifodalash holatlari ko'p bo'lmasa uchraydi, quyida keltiriladigan misolda ham muallif ishora qilayotgan vaqt o'quvchiga turli vaqtning ko'rsatishi mumkin va bu noaniqlikning yechimi esa muallif asarni yozgan aniq taqvimdagi vaqtdir:

Since the last decade, a significant study has been committed to exploring alternative bio-based polymers to replace conventional petroleum-based packaging for their adverse environmental effects due to the formation of non-biodegradable solid waste and the depletion of non-renewable fossil fuel supplies (Table 3). (Journal of agriculture and food research 12 2023 100549 10)

O'zbek tilida zamon bildiruvchi payt ravishlari, zamonga nisbatan qo'llanuvchi so'roq, belgilash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari; o'rin-payt kelishigi va chegara shakli qo'shimchasini qabul qilgan ko'rsatish olmoshlari, vaqtning nomlovchi atoqli otlar, fe'llarning zamon ko'rsatkichlari, zamonga ishora qiluvchi kechagi, bugungi, avvalgi, endigi sifatleri; zamon, payt, mahal, zum, vaqt, kun, yil, dam lug'aviy birliklari bilan shakllangan birikmalar zamon deyxisini hosil qiladi.(R.Davlatova 2020: 26)

Oxirgi vaqtlarda intensiv bog'larni rivojlantirish, meva mahsulotlarini (olma, gilos, o'rik, shaftoli) yetishtirish va uni qayta ishlashni yuqori texnologiyalar asosida tashkil etish davr talabi bo'lib bormogda. (Agroilm 5(68) son 2020 72)

Ingliz tilida now, then ravishlari faol ravishda zamonnifodalovchi deytik birliklar sanalsada, agromatnlarda boshqa payt ravishlari kelishi holatlari ham kuzatildi: At present, many review articles have been published on the summary of polymer-based hydrogels to adsorb dyes and metal ions. (Journal of agriculture and food research 12 2023 100552 1)

O'zbek tilida ma'lum bir vaqtga atab qo'yilgan nomlar ham zamon deyxisini shakllantiruvchi birliklar sirasiga kiradi. Jumladan, «Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» 2019 yilga, «Ilm ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» 2020 yilga ishora qiladi. Yoki bayram va marosimlarga qo'yilgan nomlar ular o'tkaziladigan sanaga, oyga: «Navro'z» bayrami 21 martga, «Yangi yil» bayrami 1 yanvarga ishora qilib, zamon deyxisini shakllantiradi (R.Davlatova 2020: 27)

Qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonovning tegishli buyrug'i bilan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni – "Hosil bayrami" arafasida

sohaning mirishkor dehqon va fermerlari, zahmatkash chorvador va pillakorlari, mohir suvchi va irrigatorlar, o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lgan mexanizator va agronomlar, jonkuyar olim va mutaxassislari, tizim rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh soha fidoyilari "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi fidoyisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. (O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi 12 son 2023y : 34)

Yuqorida keltirilgan misolda zamon deyksisi ikkita ibora bilan berilgan bo'lsa ham ayni bir vaqtni anglatishi bilan ahamiyatga molikdir. O'zbek tilidagi agromatnlarda bu kabi misollar ko'plab topiladi, biroq ingliz tilida bunday holat juda ham kamyoib sanaladi.

Zamon deyksisini ifodalovchi yana bir holat bu fe'ning zamon kategoriyasidir. Ingliz va o'zbek tillaridagi agromatnlarda bu holatni farqlovchi xususiyatga ega deb aytolmaymiz, sababi ilmiy jihatdan tasdiqlangan ma'lumotlarni bayon etishda ko'pincha mavhumlikni yoki umumiylikni afzal ko'ruvchi olimlar bu holatda ham aniq zamonni ko'rsatishdan yiroq bo'lishadi. Sankt-Peterburglik tilshunos Aleksandr Vladimirovich Bondarko «davriy makonga ega bo'lgan va davriy makonsiz harakat, faoliyat vaziyatlarini» farqlashni taklif qiladi (Bondarko 1987: 210). Ushbu nomuvofiqlikni o'z paytida sezgan polyak olimi E.Koshmider ham «Uch karra uch to'qqiz», «Qo'l qo'lni yuvadi» qabilidagi «umumiy haqiqat»ni yoki mavhum faktlarni ifodalovchi tuzilmalarni vaqt oralig'i qatoridan o'rin olmaganligini qayd etadi. Uningcha, «vaqt oralig'ida joylashish» va bunday o'ringa ega bo'lmaslik o'rtasidagi farq grammatik shakllarda o'z ifodasini topadi» (Koshmider 1962: 131). Safarov esa yuqorida ko'rsatilayotgan farq asosan formal-semantik xususiyatga ega deb hisoblaydi va bu hodisa pragmatik tahlil nuqtai nazardan olib qaralganda esa ular o'rtasidagi nomuvofiqlikning keskin emasligi ma'lum bo'ladi deb fikr bildiradi (Safarov Sh 2008:179). Ingliz va o'zbek tillaridagi matnlarda hozirgi va o'tgan zamon shakllari orqali matnlar hosil qilinsada, ularda matn doirasida zamon ko'rsatish xususiyati payt ravishlari yoki atoqli otlardek emas.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi qishloq xo'jaligiga oid matnlarda ishorani bildiruvchi deyksis hodisasining bir guruhiga kiruvchi zamon deyksisi uchrashi holatlari mavjud. Ingliz tilida vaqtni ko'rsatish funksiyasini payt ravishlari va calendar birliklari bilan qo'llanuvchi so'z birikmalari bajaradi. O'zbek tilida temporal deyksisni ko'rsatuvchi vositalar bir muncha ko'proq bo'lib, bunda payt ravishlari asosiy o'rinni egallaydi, biroq atoqli otlar ya'ni ma'lum bir muddatni bildiruvchi so'zlar yil nomlari, bayramlar nomlari agromatnlar tarkibida kelib, vaqtga ishora qiluvchi deyktik vositalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Bondarko A.V. *Временная локализованность. // Теория функциональной грамматики.* – Л.: Наука, 1987. – С. 210-233.
- [2]. Кошмидер Э. *Очерк науки о видах польского глагола: Опыт синтеза.* – М.: Наука, 1962. – С. 105-167.
- [3]. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика.* – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. – 285b.
- [4]. Уфимцева А.А. *Типы словесных знаков.* М.: Наука, 1977. – 250с.
- [5]. Шерматов, А. "Илмий матнларда дейктик ҳаволаларнинг прагматик хусусиятларига доир."//*Иностранная филология: язык, литература, образование //3.3 (2018): 68.*
- [6]. Davlatova R. *O'zbek tilining deyktik birliklari filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati.* – Toshkent.: 2020.- 71b.
- [7]. Fillmore Ch. *Santa Cruz Lectures on Deixis. Indiana: University linguistic Club, 1975.- P.87.*
- [8]. Huang Yang *Pragmatics.* – Oxford.: Oxford University Press, 2007. – 367p.

- [9]. Levinson S.C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – 419p.
- [10]. Yule G. *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press, 1996. - 138p